

QALQONSIMON BEZ VA QALQON OLDI BEZINING MORFOLOGIK TUZILISHI VA VAZIFALARI

A.E.Aytjanova

<https://orcid.org/0009-0009-0984-3913>

Toshkent davlat tibbiyot Universiteti,
Odam anatomiyasi va OXTA kafedrası, Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya: Qalqonsimon bez-toq endokrin a'zo bo'lib, asosan bo'yinning oldingi uchburchagi sohasida joylashgan. Anatomik tuzilishi jihatdan qalqonsimon bez ikki bo'lakdan tashkil topgan. Ushbu bo'laklar o'z aro bo'yincha yordamida tutashgan. Bundan tashqari, bazi hollarda ya'ni 30-35% holatda bezning pyramidal bo'lagi ku'zatilishi mu'mkun. Me'yorda qizg'ish-ku'rangda, og'irligi yoshga bog'liq holda o'zgaruvchan bo'lib 17-40gram bo'ladi. Bezning asosiy garmoni tiroksin va triodtrionin bo'lib, vazifasi qondagi yodni o'zida ushlab qoladi va organizmda yod etishmaganda yodni ishlab chiqaradi. Bezni har bir bo'lagi taxminan 600mkg gacha yodni tutadi.

Qalqon oldi bezi-odatda qalqonsimon bez kapsulasidan tashqarida joylashgan, dumoloq shakldagi ikki juft bez bo'lib, diametri 5mm gacha, vazni 0,5 gramga teng.

Bezning asosiy garmoni-paratgarmon bo'lib, polipeptid tabiiyatli birikma hisoblanadi. Ushbu polipeptidlar 84ta aminokislota qoldig'idan tu'zilgan. Paratgarmonning asosiy vazifasi- organizmda kalsiy almashinuvni boshqarishda ishtirok etadi.

Kalit so'zlar: qalqonsimon bez, qalqon oldi bezi, tirozin, triodtrionin, kalsitonin, paratgarmon, trabekula, follikula.

Аннотация- Щитовидная железа — непарный эндокринный орган, расположенный преимущественно в области переднего треугольника шеи. В анатомическом отношении щитовидная железа состоит из двух долей, соединённых между собой перешейком. Кроме того, в 30–35% случаев может

наблюдаться пирамидальная доля железы. В норме железа имеет розовато-серый цвет, её масса варьирует в зависимости от возраста и составляет 17–40 граммов. Основными гормонами щитовидной железы являются тироксин и трийодтиронин. Их функция заключается в накоплении йода в крови и обеспечении организма йодом при его недостатке. Каждая доля железы содержит примерно до 600 мкг йода.

Паращитовидные железы — обычно расположены вне капсулы щитовидной железы, представляют собой две пары округлых образований диаметром до 5 мм и массой около 0,5 грамма.

Основным гормоном паращитовидных желез является паратгормон — соединение полипептидной природы. Данный полипептид состоит из 84 аминокислотных остатков. Основная функция паратгормона — участие в регуляции кальциевого обмена в организме.

Ключевые слова: щитовидная железа, паращитовидная железа, тирозин, трийодтиронин, кальцитонин, паратгормон, трабекула, фолликул.

Annotation-*The thyroid gland*-is an unpaired endocrine organ located mainly in the anterior triangle of the neck. Anatomically, the thyroid gland consists of two lobes connected by an isthmus. In addition, in 30–35% of cases, a pyramidal lobe of the gland may be observed. Normally, the gland is pinkish-gray in color, and its weight varies depending on age, ranging from 17 to 40 grams. The main hormones of the thyroid gland are thyroxine and triiodothyronine. Their function is to retain iodine in the blood and supply the body with iodine in cases of deficiency. Each lobe of the gland contains approximately up to 600 µg of iodine.

The parathyroid glands-are usually located outside the capsule of the thyroid gland and consist of two pairs of round-shaped glands, up to 5 mm in diameter and weighing about 0.5 grams.

The main hormone of the parathyroid glands is parathyroid hormone (PTH), which is a polypeptide compound. This polypeptide consists of 84 amino acid residues.

The primary function of parathyroid hormone is to regulate calcium metabolism in the body.

Keywords: thyroid gland, parathyroid gland, tyrosine, triiodothyronine, calcitonin, parathyroid hormone, trabecula, follicle.

Kirish-Qalqonsimon bez-yuqorida pastki jag'ning pastki cheti, pastda to'sh suyagining bo'yinturuq o'yig'i, yon tomondan o'ng va chap to'sh-o'mirov so'rg'ishsimon muchaklarning oldingi shetlari bilan chegaralangan. Katta yoshdagi insonda qalqonsimon bez hiqildoqqa va kekirdakning yo'qorig'i qismida qismida joylashadi. Bunda bez bo'yin qismi kekirdakning II-IV yarimhalqalari u'stida joylashgan bo'ladi. Yon o'ng va chap b'laklari esa qalqonsimon to'g'ay yuzasini yopib joylashadi. Har bir bez bo'lagida oldingi va orqa yuzalari, pastki va tashqi chetlari farqlanadi. Erkaklarda bez biroz pastroqda joylashadi, to'sh suyagining yuqorg'i chetigacha boradi. Ayollarda bez o'lshami va hajmi kattaroq bo'lib, qalqonsimon va uzuksimon to'g'aylarni oldi va yon tomonida joylashgan bo'ladi. Qon bilan ta'minlanishiga qarab bez rangi qizg'ish rangdan-to'q ranggacha bo'lishi mumkun. Og'irligi yoshga bog'liq o'zgaruvchan bo'lib, 20-60 yoshda 17 dan-40 gramgacha, 50-55 yoshlarda esa, follikula atrofiyasi sababli bez vazni va hajmi kamayadi lekin funksional holati saqlangan bo'ladi. Tashqi tomondan bez shaffof, fibroz kapsula bilan qoplangan, kapsuladan bez to'qimasi ichiga, biriktiruvchi to'qimali trabekulalar yo'naladi va bezni bo'lakchalarga ajratadi. Ushbu bo'lakchalar a'zo parenximasi uchun tayanch vazifasini bajaradi. Trabekulalar bez stromasini hosil qilsa, bo'lakchalar parenximasini hosil qiladi. Bezning struktur funktsional birligi- follekulalar bo'lib, bir qabatli epiteliy bilan qoplangan, uchi berk pufakcha hisoblanadi. Bez parenximasida ikki xil hujayralar bo'ladi;

Asosiy foizini A-hujayralar ya'ni follekulyar hujayralar tashkil qiladi. Bu hujayralar tirotsit hujayralar deb nomlanadi. Bu hujayralar follekula devorini qoplab turadi. Follekula ishi kolloid modda bilan to'lgan bo'ladi. Har bir follekula kapillyar to'ri bilan qoplangan bo'lib, ushbu kapillyarlar bo'shlig'iga tiroksin va triyodtrionin

garmonlari ajratiladi. Tirotsit hujayralarda apikal, bazal va yon yuzalari farq qiladi. Bazal yuzasi qon tomirlar bilan bog'langan bo'ladi

Ikkinchi hujayralar parafollekulyar hujayralar yoki C hujayralar deb nomlanadi va ushbu hujayralar tirotsit hujayralardan farq qilib o'zida yod o'zlashtirmaydi. Bu hujayralar asosiy vazifasi kalsiytonin garmoni sintezida ishtirok etish va organizmda kalsiy almashinuvini ta'minlab o'tirishdan iborat.

Tarraqiyoti:Bez follikulalari yangi tug'ilgan chaqoloqlarda birinchi ikki haftasida jadal rivojlanadi. Follikulalar bu davrda mayda diametri 60-70 mkm gacha bo'ladi. 6-oylik embrionda butun bez bo'lab yaxshi rivojlanadi. 1 yoshga kelib follikulalar diametri 100 mkm gacha tenglashadi. Jinsiy etilish davrida bez parenximasi va stromasi o'sishi kushayadi va natijada katta yoshlilarda follikula diametri 250 mkm gacha bo'ladi.

Tiroid garmonlarning tarkibiy qismi yod hisoblanadi. Qalqonsimon bez iodni qondan oladi. Iodning asosiy manbai esa dengiz mahsulotlari, go'sht va sut hisoblanadi. Ku'nlik estimol miqdori me'yorda erkaklar va homilador bo'lmagan ayollar uchun 100-150 mkg bo'ladi. Meda shilliq qabati va so'lak bezlari qabul qilingan ovqat tarkibidan yodni o'ziga so'rish qobiliyatiga ega. Yod to'laligicha ichakda so'riladi. Agar buyraklar yaxshi ishlasa yod orgaizmdan tez chiqib ketadi. Ya'ni bir kunda organizmga 500 mkg yod tushsa 485 mkg si organizmdan buyraklar orqali chiqib ketadi. Qonga so'rilgan yod hujayralariga o'tishi maxsus energiya talab qiladi.

Tadqiqot materiallari va usullari.

Qalqonsimon bezda ku'zatiladigan patomorfologik o'zgarishlarni maxsus tekshirish usullari yordamida aniqlanadi:

-Instrumental (UTT,sintgrafiya, punktsion biopsiya, KT va MRT) tekshirish usullari

-Laborator tekshirish usullarini amalga oshirishda muhim garmonal markerlar (TTG, T3,T4) dan foydalaniladi.

-Funksional sinamalardan (triotropin-relizing garmonal sinamasi-TRG yoki tiroliberin) foydalanib tekshirish mumkun.

Instrumental tekshirish usullari asosan- qalqonsimon bezni o'sma kasalliklariga aniq tashxis qo'yishda foydalaniladi.

Laborator tekshirish usullarida-maxsus markerlardan foydalanib, bezning funksional holatini (eutirioz, gipoterioz va tireotoksikoz) aniqlash mumkun.

Funksional sinamalardan foydalanib ikkilamchi gipoterioz holatini va qalqonsimon bez o'smasida medikamentoz dori vositalarni ta'sirini aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu tekshirish usullari qalqonsimon bez faoliyatini, ularda kuzatiladigan patomorfologik o'zgarishlarni aniqlashda va bez kasalliklariga aniq tashxis qo'yishda ishlatiladi. Bundan tashqari akropatiya simptomi, oftalmopatiya simptomlaridan ham foydalaniladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish kerakki, qalqonsimon bez hajmi kichik bo'lishiga qaramasdan, ammo inson organizmida juda muhim organdir. Organizmning ko'plab muhim tizimlarning salomatligi uning ishlashiga bog'liq. Hatto juda kichik kamchilik ham eng muhim organlarning ishiga jiddiy ta'sir qilishi va kasalliklarni qo'zg'atishi mumkin.

Qalqonsimon bezning holatini baholash vaqti keldimi yoki yo'qligini tekshiring va

quyidagi alomatlardan ehtiyot bo'ling:

- 1 Vazn o'zgarishi
- 2 Uyquchanlik va charchoq hissi
- 3 Termoregulyatsiya bilan bog'liq muammolar
- 4 Hayz davrining buzilishi va homilador bo'lmaslik
- 5 Depressiya va tashvish

6 Teri va soch muammolari. Agar ushbu belgilar organizmda ku'zatsilsa qo'shimcha ravishda qalqonsimon bezni endokrinolog shifokorga tekshirtirish yo'li bilan ko'plab asoratli kasalliklarni oldini olgan bo'lamiz.

Shulardan ehtiyot bo'lib bu narsaga jiddiy qarash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopedyasi (2000-2005)
2. A. Ahmedov Odam anatomiyasi
3. S.I.ISMOILOV, SH.U.AXMEDOV.Y.M.URMANOV va F.S.XODJAYEVA
ENDOKRINOLOGIYA darsligidan foydalanildi.